

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 38 (67255)
2019-yil 23-sentyabr



www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

ZIYODA PREZIDENT MAKTABIGA QABUL QILINDI

Yuzlab hujjat topshirgan tengdoshlarim bilan bilim borasida bellashdik va 6-o'rinni egallab, Prezident maktabiga qabul qilindim.

Ba'zan «4» baho olib kelganimizda, dadam bizni «jazoldilar».

Qanday «jazo» ekanligini 2-betdan bilib olasiz.

USTOZLIK SAODATI



Xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishoni sohibasi Nasibaxon Mahmudova, mana 36 yildirki, Namangan viloyati, Norin tumanidagi 43-umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. O'tgan yillar davomida ustozning dars ishlanmalari respublikada ommalashtirilgan, «Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida viloyatda 2-o'rinni egallagan, shogirdlari – Sardorbek Qahhorov, Fayzullo Komilov aynan shu maktabda ingliz tili fanidan dars berib kelishmoqda.

ZIYODA PREZIDENT MAKTABIGA QABUL QILINDI

«Namangan viloyati bilimlar reytingida respublikada 1-o'ringa chiqib oldi. Bizning maktabimiz esa o'tgan o'quv yilida tumandagi 45 ta maktab orasida 9-o'rinda edi, bu yil 3-o'rinni egalladi».


Bu xushxabarni biz «Tong yulduzi» kunlari doirasida Namangan viloyati, Norin tumanidagi 44-umumta'lim maktabida bo'lganimizda, maktab direktori Zuhridin Haydarovdan eshitib, juda xursand bo'ldik. Maktab o'qituvchi va o'quvchilarining zukkoligini ko'rib, tez orada 1-o'rinni olishlariga shubha qilmadik...



o'tgan yili 80 yoshda olamdan o'tdilar (Xudo rahmatiga olgan bo'lsin). Bu yerda nafaqat maktabimiz hayoti, balki tumanimiz, Cho'ja qishlog'imiz tarixiga oid 2000 dan ziyod eksponatlar mavjud. Hamisha o'quvchilar bilan gavjum bo'ladigan muzeyimiz yildan yilga yangi-yangi eksponatlar bilan boyib bormoqda. Bunda, albatta, o'quvchilar, ustozlar va ota-onalarning hissasi katta. Buning uchun ularidan behad minnatdorman, — deydi Matluba opa faxr bilan.

Muzeyda ko'plab o'quvchilarni uchratdik, hamsuhbat bo'ldik, maqsadlari, rejaları bilan qiziqdik. Ulardan biri — Ziyoda Mamatxonova Prezident maktabiga o'qishga kirganini aytganida, uning quvonchiga biz ham sherik bo'ldik.

— Prezident maktabiga qabul ikki bosqichda bo'lib o'tdi. Yuzlab hujjat topshirgan tengdoshlarim bilan bilim borasida



bellashdik va 6-o'rinni egallab, mazkur bilim dargohiga o'qishga qabul qilindim. Bunda ustozlarim Matluba Yo'ldosheva, Avazbek Asqarov, shuningdek, dadajonim va tog'amning xizmatlari ham juda katta. Qolaversa, Prezidentimiz biz yoshlar uchun yaratib berayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar uchun mingdan ming rahmatlar aytamiz. Bunga javoban, kelajakda, albatta, Vatanimizga munosib farzand bo'lib, bizga berilgan ishonchni oqlaymiz, — dedi Namangandagi Prezident maktabining 7-sinf o'quvchisi Ziyoda Mamatxonova. — Farzand tarbiyasida oilaviy muhit katta ahamiyat kasb etishiga amin bo'ldim, — deya o'z so'zini davom ettirdi u. — Dadam harbiy



Ahmadxon KOMILOV, 7-«A» sinf sardori:

— Sinfimizda 26 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. Sinf rahbarimiz, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Matluba Yo'ldosheva bizning kun tartibimiz, rejalarimiz, hatto har bir fandan olayotgan baholarimiz bilan qiziqib turadi. Shu boisdanmi, sinfimizda barcha o'quvchilar a'lo baholarga o'qishadi.

Birortamizning uyimizda tadbir bo'lsa yoki yordam kerak bo'lib qolsa, darrov har birimiz tezda yetib boramiz. Sinfdoshlar bir-biriga mehribon, oqibatli. Men hamisha sinfdoshlarim bilan faxrlanaman.

Ilm maskani rahbari bizni maktab muzeyiga taklif qildi. U yerda bizni ustoz Matluba opa kutib oldilar.

— Maktabimiz uzoq tarixga ega, 1922-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning 75 yilligiga bag'ishlab muzey ochilgan. Bu muzeyni mening otam — shu maktabda tarix fanidan saboq bergan o'qituvchi Solijon Norqo'ziyev tashkil qilganlar. Ular



Maktab o'quvchilari viloyat, respublika tanlovlarida, «Bilimlar bellashuvlari»da faol ishtirok etib kelishadi. Jumladan, 11-sinf o'quvchisi Jamshidbek Po'latov «Konstitutsiyamiz baxtimiz poydevori» Respublika tanlovining vatanparvar mo'yqalam sohibi yo'nalishida 1-o'rinni egalladi.

larni yaratib berishga harakat qilamiz. O'z o'rinda talabchamiz. Deylik, ona tilidan «4» baho olgani uchun 4-5 varaqli insho yozish orqali «jazolanishardi». Biror fandan past baho olishsa, dadasi qo'shimcha kitob o'qishini talab qilardilar. Ba'zan 4-5 varaqli to'ldirib yozish, soatlab qo'shimcha kitob o'qish, albatta, o'quvchiga, jumladan, Ziyodaga ham yoqmas edi. Shunday bo'lsa-da, farzandlarim o'qishda, o'rganishda davom etishardi. Natijasini esa, mana, o'zingiz ko'rib turibsiz!

Ziyodaning, «4» baho olganimizda, dadam jazolardilar, degan gapi e'tiborimizni tordirdi va u qanday jazo ekanligiga qiziqdik. Ziyodaning onasi Zebo opa bizga shunday izoh berdilar:

— Farzandlarimiz hamisha diqqat-e'tiborimizda bo'lgan. Ular uchun barcha sharoit-

Aziz o'quvchilar! Ziyoda va uning maktabdoshlari bilan yaqindan tanishdingiz. Siz ham ularga havas qiling va ibrat oling.

Feruz SOYIBJON qizi

Bugun poytaxtimizda faoliyat boshlagan Prezident maktabi haqida eshitnagan o'quvchi bo'lmasa kerak?! Bu zamonaviy va nufuzli o'quv dargohida tahsil olishni qaysi o'quvchi istamaydi, deysiz?! Yoshlarimizning orzu-havaslarini maqsad tomon yetaklasa, ajab emas. Biz esa bugun Sizni mazkur ta'lim maskani va uning o'quvchilaridan biri bilan tanishtirmoqchimiz.

NUFUZLI DARGOHDA BIR KUN

Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan Prezident maktabiga kirib borishingiz bilan qalbingizni hayrat va hayajon qoplaydi. Bino-ning o'ziga xos tashqi ko'rinishi-yu, batartib yo'laklari kayfiyatingizni ko'taradi. Maktab rahbari To'raboy aka Shermatov bizni qarshi olib, o'quv

alohida e'tibor beriladi.

Prezident maktabida o'quvchilar 5 kun davomida maktab hududidagi qulay va shinam yotoqxonalarda yashashadi. Yotoqxonalar zamonaviy mebel va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, har bir xona to'rt nafar o'quvchiga mo'ljallangan. Maktab hovlisida bolalarning hordiq chiqarishlari uchun sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, futbol maydoni, suzish havzasi ularning ixtiyorida. Bu imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanib, katta maqsadlariga erishish niyatidagi o'quvchilardan biri Boxirbek Ibrohimovni suhbatga chorladik. U 6-sinfda tahsil olar ekan. Matematika faniga qiziqishi baland qahramonim-darslardan so'ng robototexnika to'garagiga oshiqar ekan. Chunki u ixtirochi bo'lish orzusida. Shu bilan birga, Boxirbek karate, futbolga ham qiziqishi haqida so'zlab berdi. Maktabidagi har bir dars juda qiziqarli tarzda o'tilishini ta'kidlagan yosh ixtirochi sinf rahbari Iqbol Ilhomov, shuningdek, barcha ustozlarini ya-



binosi tomon boshladi. Yorug' va keng sinf xonalarida o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilganiga guvoh bo'ldik. Sinf xonalarning o'quvchiga ko'tarinki kayfiyat ulashuvchi jihoz va suratlar bilan bezatilgani tahsinga sazovor. To'garak

xonalari ham ulardan qolishmaydi. Maktab STEAM metodologiyasi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlangan. Bu darslar ingliz tilida o'tilishidan xabaringiz bor. Yosh avlodni Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun o'zbek tilida o'qitiladigan ona tili va adabiyot, tarix, Vatan tuyg'usi kabi fanlarni chuqur o'rgatishga ham

qinlashib kelayotgan kasb bayramlari bilan tabriklashni ham unutmadi. Biz barcha o'quvchilarga katta maqsadlari yo'lida omad tiladik. Sizga esa tilagimiz – yurtimizdagi qaysi bir nuri ilm dargohida ta'lim olmang, chuqur bilim olib, yetuk inson bo'lish istagi yo'lida shaxdam qadam tashlang. Yo'lingiz ravon bo'lsin!

Sayyora QODIROVA

Lesson 38

IMPROVE YOUR MEMORY

Attention

Attention is one of the major components of memory. In order for information to move from your short-term memory into long-term memory. You need actively attend to this information. Try to study in a place free of distractions such as television, music, and other diversions.

Read out loud

Research suggests that reading materials out loud significantly improves your memory of the material. Educators and psychologists have also discovered that having students actually teach new concepts to others enhances understanding and recall.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV



VAZIR BILAN UCHRASHUV



Ushbu o'quv yilining boshlanishi maktabimiz o'quvchilariga o'ziga shukuh bag'ishladi. Boisi, ta'lim maskanimizga O'zbekiston xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov tashrif buyurdi.

Sinfimizga vazir kirganida, hammamiz hayajonga tushib qoldik. Vazir o'z tashrifi doirasida – sinfimiz o'quvchilarini yangi o'quv yili bilan qutladi. Bizning o'tgan o'quv yilida erishgan yutuqlarimiz bilan qiziqdi. Ular bizdan kelgusida kim bo'lmoqchiligimiz, nimalarga qiziqishimiz haqida so'radilar. Men xorijiy tillarni o'rganishga havasim balandligi, til o'rganib, ulkan natijalarga erishish maqsadim ekanligini bildirdim.

Ushbu tashrifdan barchamizning boshimiz ko'kka yetdi. Maktabimizning o'qituvchi-yu o'quvchilari vazir bilan bo'lgan ilk suhbatni hali uzoq vaqt eslab yurishadi.

Komila QURBONOVA,

Samarqand shahridagi 45-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» tanloviga



Dilshod MANNONOV, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



O'rol RAVSHANOV

Jizzax ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati o'quvchilari

Afro'z AZIMOV

IJOD MAKTABI -



Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi
Halima Xudoyberdiyeva nomli ijod
maktabidan reportaj.

Bugun mamlakatimizda yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularni teran fikrlovchi avlod, zamonaviy bilim egasi qilib tarbiyalash maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligi diqqatga sazovor. Turli hududlarda tashkil etilayotgan ijod maktablari ana shunday ezgu islohotlarning mantiqiy davomi, deyish mumkin. Yaqinda faoliyati yo'lga qo'yilgan Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining bir guruh iqtidorli ijodkor o'quvchilarining bunday imkoniyatlarga javoban bildirgan fikr-mulohazalarini e'tiboringizga havola etishni joiz topdik.

Sevinch AKRAMJONOVA, 8-sinf o'quvchisi:

– Yurtimiz kundan kunga chiroy ochib, gullab-yashnamoqda. Bu chiroyga yanada chiroy qo'shib, ifor bag'ishlab turguvchi imkoniyatlar yoshlarimizga yorqin kelajak sari yangidan yangi yo'llar ochmoqda.

Yurtimizda bunday maktablarning bunyod bo'lishi, albatta, biz kabi yoshlarning kelajakda turli sohalarda ulkan marralarni zabt etishiga zamin yaratadi. Men ham shunday maktabning ostonasidan ilk bor hatlab o'tganimdayoq, porloq va ulug'vor kelajak yo'llari nur sochib turganligini yuragimdan his etdim. Qolaversa, Halima Xudoyberdiyevaning adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissasini nechog'lik ahamiyatli ekanligini yanada yanaroq anglab yetdim. Mazkur maktabda tahsil olib, kelgusida biz ham elimizga xizmat qiladigan avlod bo'lib yetishishni ko'nglimizga tugib qo'ydik. Ayni vaqtda mana shunday nufuzli maktabning o'quvchilari ekanligimizdan faxrlanamiz, Vatanimizga munosib farzand bo'lib yetishishga, yuksak marralarni ko'zlab bilim olishga intilib yashaymiz.

E'zoza ABDUTOLIBOVA, 8-sinf o'quvchisi:

– Qalbg aking, qadim turk
Chinorlari tiklansin,
Qon-qardoshning chin do'st-u
Chin yorlari tiklansin.

Bu she'rni o'qir ekanmiz, bevosita ko'z o'ngimizda ardoqli shoiramiz Halima Xudoyberdiyevaning betakror siyosi gavalanadi. Biz yoshlar viloyatimizda ana shunday hassos shoiraning nomi berilgan ijod maktabi ochilganligidan behad mamnunmiz. Maktabning kirish imtihonlarida viloyatimizning turli hududlaridan kelgan ko'plab o'quvchilar ishtirok etishdi. Xususan, men ham kirish imtihonlarida ishtirok etdim va mazkur maktabga qabul qilindim. Bu, albatta, men uchun quvonchli voqea bo'ldi. Chunki kirish imtihonlarida 700 nafarga yaqin o'quvchilardan 120 nafariga saralab olindi. Men mana shunday ijod maktabida o'qiyotganimdan hamda shunday inson izdoshi ekanligimdan judayam xursandman. Ustoz Halima Xudoyberdiyeva ta'biri bilan aytganda, she'riyatda yo'lbarstabiati, shijoatli shoira bo'lish istagi barchamizda paydo bo'lganligi shijoatimizni oshirishiga ishonamiz.



Dilafro'z G'OFUROVA, 8-sinf o'quvchisi:

– 4-sentyabr kuni darslar Halima Xudoyberdiyeva nomli maktabning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirga Sirdaryo viloyati hokimi G'ofurjon Mirzayev hamda Halima Xudoyberdiyevaning farzandlari va yaqinlari tashrif buyurgani quvonchimizni oshirdi. Ularning tadbir davomida so'zlagan nutqi biz o'quvchilarda katta taassurot uyg'otdi. Bu maktabda bugun tahsil olishni boshlagan har bir o'quvchining o'ziga xos iste'dodi bor. Bizga bildirilayotgan g'amxo'rlikka javoban, albatta, kelajakda Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shuvchi yigit-qizlar bo'lib yetishishni niyat qildik.

ISHTIYOQ MAKTABI

Go'zal RAHMONBERDIYEVA, 8-sinf o'quvchisi:

– Albatta, men ham shu maktab o'quvchisi ekanligimdan g'ururlanaman. Chunki O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva ijodi bilan yaxshi tanishman. Ustoz shoiraning nomi tilga olinsa, «Dorilamon kunlar keldi», «Muqaddas ayol» qo'shiqlari xayolimizni qamrab oladi. Mahorat bilan yozilgan bu qo'shiqni barchamiz maroq bilan eshitamiz. Shunday ekan, maktabga Halima Xudoyberdiyevaning nomi berilishida ham katta hikmat bor. Uning she'rlarida rostgo'ylik, vatanparvarlik g'oyalari tashqari ayollarga hurmat, ularni e'zozlash singari yuksak tuyg'ular mujassam. Bu she'riyat bizni yaxshilikka chorlaydi.

Shoiraning hayot yo'llariga nazar tashlasak, ko'plab qiyinliklarni boshidan kechirganiga guvoh bo'lamiz. Lekin shunday pallalarda ham hech qachon she'r yozishdan to'xtamadi. Ijodda davom etdi. Vatanim ardoqlashdan, sevishdan voz kechmadi. Sadoqatli shoir sifatida bizga ibrat maktabini yaratib ketdi. Biz ham unga munosib izdosh bo'lishga harakat qilamiz.

Sarvarbek SUYUNOV:

– Biz ushbu maktabning ochilishida ulug' insonlar bilan uchrashdik. Ularning fikrlari, o'qigan she'rlari bizni zavqlantirdi. Ularning maktabimizga tashrif buyurishi, yaxshi o'qishimizga ishonch bildirishi bizni mamnun etdi va darslarni ko'tarinki ruhda boshlab yubordik.

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining o'quvchisiga aylanish mening ulkan yutug'im bo'lganligini his etish maroqli. Maktabga kirish imtihonlari ham oson bo'lmadi. Ilgari ustozlarimiz o'rgatgan bilimlar bu jarayonlarda qo'l keldi. Xudo xohlasa, endi ana shu egallagan bilimlarni bu yerda yanada kengaytirib, yurtimiz koriga yaraydigan inson bo'lib yetishishni niyat qilib qo'ydim. Bu borada ijod maktabida faoliyat yuritishni boshlagan ustozlarimizga ham omad tilab qolaman.

Ahmad NE'MATOV:

– Ushbu o'quv yili men uchun tarixiy voqea bo'ldi. Chunki Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi bo'ldim. Imtihonlardan saralanib o'tgan o'quvchilar maktab ostonasiga birinchi qadamlarini qo'yishdi. Jumladan, mening ham quvonchim ichimga sig'mayapti. Biz bu ishonchni, albatta, oqlaymiz. Vatanimizga munosib inson bo'lamiz. Xudo xohlasa, O'zbekiston bayrog'ini yuksaklarga ko'tarib, yuqori cho'qqilarni zabt etamiz. Bunday shart-sharoitlar bizni tinimsiz izlanishga turtki bo'ladi, albatta. Shu bilan birga, ijod maktabiga qabul qilingan o'quvchilarni tabriklab qolaman.



– Maktabda ijodkorlar bilan uchrashuv o'quvchilarimizda katta taassurotlar qoldirmoqda, – deydi mazkur maktab rahbari Muhammad ISMOILOV.

Marjona ABDUMALIKOVA, 8-sinf o'quvchisi:

– «Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor», deb yozadi shoir bir she'rida. Avvalo, mana shu kunlarga yetganimiz uchun Yaratganga shukronalar aytamiz. Bugun barcha tengdoshlarim qatori mening ham quvonchim cheksiz. Ijod maktabida boshlanayotgan ilk saboqlar, dars mashg'ulotlari, tadbirlar – barchasi bizning bilimli, salohiyatli, yuksak ma'naviyatli bo'lib kamol topishimizga qaratilganligi bilan e'tiborli. Shunday ekan, o'z oldimizga aniq maqsad qo'yib, ustozlar ishonchini oqlashimiz lozimligini anglagan holda izlanishni boshlab yubordik. Zero, Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi misralari bizni shunchaki yashamaslikka undab turadi:

*Shunchaki yozmoqqa ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,
Shunchaki yozmoq bu shoirga o'lim.*

Kamola SINDAROVA, 8-sinf o'quvchisi:

– Ijod maktabi – ishtiyoq maktabi. Bu maktab bizning adabiyotga, she'riyatga, milliy tilimizga bo'lgan qiziqishimiz va hurmatimizni yanada yuqori pog'onalariga olib chiqdi. Nazarimda, shoiraning she'riy satrlarini o'qigan insonda qandaydir ruhiy kuchqudrat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham shoiraning yozganlari umrboqiylikka yuz tutdi. Biz esa ana shunday yuksak maqsadni ko'zlab harakat qilishimiz muhim ekanligini hozirdanoq payqab oldik. Bu maqsad bizning g'ururimiz va ertangi kunga ishonchimizdir.

*Buyuksiz – men topolmadim so'z
Ta'rifingiz bayon etmoqqa.
Bizni ko'rib yashnaydi har ko'z,
Izlaringiz davom etmoqda.*

Men har doim shu she'rni o'qiganimda, sevimli shoiramiz kabi yetuk ijodkor bo'lish istagim ortib boraveradi.



«MUSTAQILLIK MENING TASAVVURIMDA» KO'RIK-TANLOVI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Qadrli o'quvchilar, «Tong yulduzi»ning ziyrak muxlislari! Yodingizda bo'lsa, joriy yilning boshida O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi tashabbusi bilan «Mustaqillik mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanlov o'tkazilishi e'lon qilingan va uning maktab hamda tuman bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan edi.

Yaqinda ushbu tanlovning shahar bosqichi bo'lib o'tdi.

«Mustaqillik mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanlov ko'p sonli o'quvchilarni qamrab olgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Tanlovning maktab bosqichida 5000 dan ziyod o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, ulardan 500 nafari tuman bosqichlarida bellashishdi. Kuni kecha bo'lib o'tgan shahar bosqichida esa 22 nafar eng iqtidorli

ijodkor o'quvchilar o'z iste'dodlarini namoyon etishdi. Taniqli yozuvchilar, rassomlardan tarkib topgan hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokchilarning qobiliyatini to'rt bosqichli bellashuv asosida sinovdan o'tkazishdi.

– Bugungi ko'rik-tanlovning yakuniy – shahar bosqichida saralarning eng saralarini aniqlash ancha mushkul bo'ldi, – dedi hakamlar hay'ati raisi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, taniqli yozuvchi Ashurali Jo'rayev. – Bizga qolsa, ularning barchasi g'olib! Chunki qay birining uslubi Muhammad Yusufnigiga o'xshasa, qay biridandir Abdulla Oripov, Erkin Vohidovning ijodini hidi kelib turibdi. Lekin tanlov o'z nomi bilan tanlov! Demak, g'olibni aniqlab berishimiz kerak. Zalda o'tirgan tomoshabinlar o'z ijodidan namunalarni o'qigan eng yaxshi ishtirokchilarni davomli qarsaklar bilan olqishlab, zimmamizdagi mas'uliyatli vazifani

ancha yengillashtirishdi. Fikrimiz bir joydan chiqqandan quvonib, tanlov g'oliblarini xolisona aniqladik.

Nihoyat, hayajonli daqiqalar boshlandi. Ko'rik-tanlovning she'riyat yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa Sergeli tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi Samariddin Yo'ldoshev munosib ko'rildi. 2-o'rin Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabi o'quvchisi Otabek Ortiqovga, 3-o'rin esa Yunusobod tumanidagi 117-umumta'lim maktabi o'quvchisi Avazbek Tursunovga nasib etdi. Tasviriy san'at yo'nalishida qizlarimizning iqtidorlari ustunlik qildi. 1-o'rinni Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabi o'quvchisi Visola Arziqulova egalladi. 2-o'ringa Yunusobod tumanidagi 246-umumta'lim maktabi o'quvchisi Alina Fyodorovna, 3-o'ringa esa Mirzo Ulug'bek tumanidagi 50-umumta'lim maktabi o'quvchisi Liza Feglinaning chizgan asarlari loyiq deb topildi. Ko'rik-tanlovda qatnashgan barcha ishtirokchilar

turli nominatsiyalar g'olibi bo'lishdi va O'zMTDP Toshkent shahar Kengashi tomonidan faxriy yorliqlari bilan taqdirlanishdi, homiy tashkilotlarning qimmatbaho sovg'alarini qo'lga kiritishdi. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan saylangan deputatlar Otabek Jiyanboyev va Sardor Qoriyevning moliyaviy ko'magida chop etilgan tuman bosqichlari g'oliblarining ijod namunalaridan jamlangan «Mustaqillik mening tasavvurimda» nomli to'plam tanlov ishtirokchilari uchun eng bebaho sovg'a bo'ldi. O'quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarishga, iste'dodini to'g'ri yo'naltirishga, ular qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga, eng muhimi, eng ulug', eng aziz ne'matimiz – Mustaqilligimizning qadri yuksaltirishga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

**Feruza JALILOVA,
Xalq deputatlari Toshkent shahar Bektimir tuman kengashi deputati**



O'ZLIGIMNI ANGLAYAPMAN

Men a'lo baholarga o'qiyman. She'r mashq qilaman. Ijod namunalarim tuman gazetalarida chop etilgan.

2018-yili «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivalining tuman bosqichida «Badiiy ijod» nominatsiyasi g'olibi, 2019-yili «Kamalak» yulduzi bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichi sovrindori bo'ldim. Maktabimizda o'tkazilgan «Eng zukko kitobxon», «Eng yaxshi kitobxon» kabi tanlovlarda 1-o'rinni qo'ldan bermay kelyapman. Respublika ko'rik-tanlovlari ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallayapman. Xalq dostonlarini, o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining she'rlarini, nasriy asarlarini o'qish jon-u dilim. Navoiy va Bobur bobomiz g'azallari shaydosiman. Ustozim Davlat aka yordamida har bir g'azalning mazmunini tushunishga harakat qilayapman. Shuningdek, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf she'riyatini, Abdulla Oripov ijodidagi falsafiy fikrlarni anglashga harakat qilaman. Zulfiya, Halima Xudoyberdiyevaning ijodi ham menga yaxshi tanish.

Men o'qigan kitoblarimning asosiy mazmunini talqin qilib, uning fusunkor olamidani bahramand bo'lsam, kitob yozgan muallifdan minnatdor bo'laman. O'qiganlarimdan hayotiy xulosalar chiqaraman, she'rlarining ma'nosini anglashga harakat qilaman. Nemis shoiri va faylasufi Gyote yozganidek, kitob o'qishni bir umrlik o'rganiladigan mashg'ulotimga aylanishiga sababchi bo'lgan ustozlarimdan minnatdorman.

**Sevinch ZULFIQOROVA,
Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi
17-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi**



KITOBGA BIR QARASAM....

O'lim to'shagida yotgan Abu Bakr al-Xorazmiydan: – Ko'ngling nimani xohlaydi, ishtahang nimani tusamoqda? – deb so'raganlarida: – Kitobning yuziga bir qarasan! – deb javob bergan ekan.

Demak, kitobga bo'lgan mehr inson hayotining so'nggi lahzalarigacha uning qalbini tark etmas ekan. Bir umr qalblarimizni nurlantirib, atrofdagilarga ham ziyo ulashib turaverar ekan. Zero, «Bir do'stiki, hech kimga bermagay azob, Uzoq sinab ko'rdim, bilsang u kitob», «Kitob yolg'izlikdagi eng munis hamdamdir» kabi hikmatlar dono xalqimiz tomonidan bejizga aytilmagan.

Yozgi ta'vil davomida men fransuz adibi Jyul Gabriel Vernning «Sirlil orol», «15 yoshli kapitan», «Kapitan Grant bolalari» asarlarini sevib o'qib chiqdim. U 65 dan ziyod ilmiy-fantastik, sarguzasht roman, qissa va hikoyalar muallifi ekan. YUNESKO ma'lumotlariga qaraganda, Jyul Vern asarlari tarjima qilinishi jihatidan Agata Kristidan keyin ikkinchi o'rinda turarkan. Oynning orqa tomonidagi bir krater Vern nomi bilan ham atalarkan.

Yozuvchining «Kapitan Grant bolalari» asarida samimiyat, mardlik, oqko'ngillik,

vatanparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, umid va ishonch kabi oliy insoniy fazilatlar ulug'langan. Zero, bunday fazilatlar kamdan kam insonlarda uchraydi. Asarni o'qib, inson o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yishi, uni amalga oshishi uchun qiyinchiliklardan cho'chimasligi kerak ekan, degan xulosaga keldim. Shuningdek, umid va ishonch, ezgu istak, intilish ko'zlagan maqsadimizga yetishishimizda qo'l kelishiga ishonim.

Menimcha, har bir asarni qo'lga olishdan avval yozuvchining hayoti, bolalikdagi orzulari bilan tanishib chiqish ham foydali, ham qiziqarli deb o'ylayman.

Insonni ma'naviyat, ma'rifatga yetaklashda kitob mutolaasining ahamiyati katta. Shunday ekan, kitob o'qish doimiy ehtiyojimizga aylanishini istardim.

**Mo'mina JALOLIDDINOVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
249-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi**



Bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz o'quv yilining ilk kunlari-dayoq sayohat qilishga ulgurishibdi.

mehmonning suhbatini jon quloqlari bilan tinglashdi. Faxriddin aka bolalik yillari haqida hikoya qilib, o'z ijodidan namunalari o'qib berdi. Shundan so'ng, ustozlar Gulxumor Ibragimova va Zamira opa Berdiyeva bolajonlar ham o'z iste'dodlarini namoyon qilish niyatida ekanliklarini aytishdi. Navbat yosh she'rxonlarga berildi-yu, davrada bola-

jonlarning sho'x-shodon ijrolari yangradi. Biz esa ularni olqishlab, «Tong yulduzi»ning yangi sonini ulashdik. Shunda 2-«A» sinf o'quvchisi Muhammad Amin Tojiyev, biz kitob, gazeta va jurnal o'qishga juda qiziqamiz, deya bizni behad mamnun qildi.

Sayyora QODIROVA,
Gulmira SODIQOVA

YANGI O'QUV YILIDAGI ILK SAYOHAT

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 2-«A» va 4-«V» sinf o'quvchilari Respublika bolalar kutubxonasiga borishdi. Ushbu maskanga «Tong yulduzi» xodimlarini hamda «Yoshlik» jurnali Bosh muharriri Faxriddin Hayitni taklif qilishgani ham bejiz emas ekan-da! Shunday qilib, uchrashuvimiz boshlandi. Kitoblar olamiga jam bo'lgan yosh kitobxonlar



Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 2-«V» sinf o'qituvchisi Dildora opa Isoilova hamda 2-«G» sinf rahbari Gulnora G'aniyevaning Mustaqillik darsidan boshlangan har kungi saboqlari o'quvchilarga olam-olam zavq bag'ishlamoqda.

Janubiy Koreya davlatida bo'lib o'tgan Butunjahon jang san'atlari festivalida ishtirok etgan Xonqa tuman bolalar-o'smirlar sport maktabi o'quvchisi Ziyoda Atajanova ikkita oltin medalga sazovor bo'ldi.

ZIYODA — 2 TA OLTIN MEDAL OLDI

Festivalda o'zbek jang san'ati bo'yicha ishtirok etgan Ziyoda dastlab Hindiston, keyin Kambodja hamda bogariyalik sportchilarni yenggan holda finalga yo'l oldi. Hal qiluvchi bahsda u filippinlik sportchi bilan kuch sinashdi va bu safar ham g'alaba qozonib, oltin medalga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, festival davomida Ziyoda yana bir musobaqada ishtirok etib, bu yerda ham Hindiston, Kambodja hamda filippinlik sportchilar bilan bellashdi. Hindiston milliy sporti bo'lgan ushbu musobaqada ham Ziyoda O'zbekiston hisobiga yana bir oltin medalni qo'shib qo'ydi.

NAMANGANLIKLAR JAHON CHEMPIONI BO'LIHDI

Joriy yilning 14-15-sentyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida sambo bo'yicha yoshlar va kattalar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Chempionatda ishtirok etayotgan 13 davlat sportchilari orasida O'zbekiston milliy terma jamoasi ham bor edi. Mazkur musobaqada Namangan shahridagi 1-BO'SM tarbiyalanuvchilari Javohir Ibragimov va Abdullo Abdurashidovlar jahon chempionligini qo'lga kiritishdi. Asadbek Inomov va Abror Mahmudjonovlar kumush medalga sazovor bo'lgan bo'lsa, Obidxon Abdurahmonov bronza medali sohibiga aylandi.

Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari Shermuhammad Muhammadjonov va Asadullo Muhammadjonovlar bronza medalini qo'lga kiritishdi.



YOSH SHAXMATCHILARIMIZ XALQARO MUSOBAQA SOVRINDORI

Ispaniyaning Salobrenya shahrida 11-14-sentyabr kunlari 14-18 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar orasida rapid va blits yo'nalishida jahon chempionati bo'lib o'tdi.

Ushbu nufuzli musobaqada 16 yoshgacha bo'lgan yosh toifasida 2003-yilda tug'ilgan surxondaryolik Aziza Tursunova qizlar o'rtasida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qildi. 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida 2006-yilda tug'ilgan toshkentlik tengdoshingiz Muhiddin Madaminov ustozlari ishonchini qozondi.

Kuni kecha yurtimizga qaytgan yosh shaxmatchilarimizdan Muhiddin Madaminov o'z yosh toifasida tezkor shaxmat bo'yicha vitse-chempion bo'ldi. Aziza Tursunova esa blits musobaqalarida sovrindorlar safidan joy oldi.

Nurbek QIDIRALIYEV

«BARKAMOL AVLOD»DA OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Kuni kecha poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi barcha umumta'lim maktablari o'quvchilari «Barkamol avlod» Respublika bolalar texnik ijodiyot markazidagi to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

Markazda bugungi kunda 15 yo'nalishda «Boshlang'ich texnik modellashtirish», «Aviamodel», «Robototexnika», «Duradgorlik», «Yosh dasturchi», «Tasviriy san'at», «Ingliz tili» singari to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Tadbirda markaz qoshida faoliyat yuritayotgan to'garak a'zolarining ijodiy ishlaridan ko'rgazma tashkil etildi. Shuningdek, «Yosh doirachi» va «Raqs» to'garak a'zolari tomonidan Vatan hamda baxtli bolalikni tarannum etuvchi she'r va qo'shiqlar kuylandi, «Turon» sport jamoasining ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi.


Tadbir so'ngida faol to'garak a'zolari faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Nigora ABDUNAZAROVA



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Javob so'zlari soat mili yo'nalishida aylanma holatda kataklarga joylashtiriladi.



1. Uzun oyoqli qush.
2. Xushbo'y o'simlik.
3. Diyorimizdagi tog'.
4. Mayin shamol.
5. Quyosh nuridan saqlovchi qurilma.
6. Yurtimizdagi viloyat.
7. Ta'lim-tarbiya o'chog'i.
8. Uch yoki to'rt torli cholg'u.
9. Uzun navi.
10. «Millionlar o'yini».
11. Meva ichimligi.
12. Kristall tog' jinsi.
13. Tutsimon dorivor meva.
14. Bolalar o'yini.
15. Sayroqli qush.
16. Aqliy sport o'yini.
17. Kuljili

Tuzuvchi:
Anvar MIRZAZODA

18. Kichik hikoya.
19. Xorazm qovuni.
20. Olma turi.
21. Foydali hasharot.
22. Sershira o'rik xili.
23. Sinchalak qushning ikkinchi nomi.
24. Boshqoli don o'simligi.

Topshiriq: shakl ichidagi raqamlarga e'tibor bersangiz, har bir kasrli raqam muhim ma'noni bildiradi. Raqamlar yordamida o'zbek xalq maqollarini o'qing-chi...

DONISHMAND HIKMATI

Bir kuni podshoh dengiz sayohatiga chiqdi. Uning hali dengizga chiqib ko'rmagan va yo'l azobini tortmagan bir quli ham bor edi. Kema suvga tushirilib, to'liqlar ichra harakatlana boshlaganida, qulni vahima va qo'rquv qamrab oldi. O'z-o'zidan qaltirab, yig'lay boshladi. Atrofdagilar uni tinchlantirishga qancha urinishmasin, uning vahimasi sira ham bosilmadi. Kemada bir dono qariya bor edi. Shunda u shohga qarab:

– Sultonim amr etsalar, uni o'zimginchi tinchlantirsam... – dedi.

– Bizga katta yaxshilik qilgan bo'lardingiz, – dedi podshoh.

Donishmand darhol: «Beliga arqon bog'lab, dengizga uloqtiring», deya kema dagilarga amr qildi. Uni bir necha marotaba dengizga sho'ng'itib olishdi. Qul og'zi burnigacha suvga botib tipirchilay boshladi. Ma'lum muddat bu holat takrorlangach, qariya mashg'ulotni to'xtatdi. Ichlari suvga to'lgan qul kemaga chiqarildi. Ichgan sho'r suvlarini chiqarib olganlaridan so'ng, hushiga keldi va kemaning bir chetiga borib o'tirdi. Va nihoyat, qul tinchlandi. Endi u vahimaga tushib baqirmas va yig'lab hammani parisonxotir qilmas edi. Qariyaning tutgan dono tadbiridan podshoh mamnun holda so'radi:

– Bunda qanday hikmat bor edi?

U javob qildi:

– Qulingiz dengizga chiqmaganligi bois, uning qiyinchiligi va cho'kish azobini tortmagan edi. Shu sababdan kema dagi sokinlik qadriini bilmadi. Xuddi shunday, sog'liqning qadriga bemor odam yetadi.

Hikmat

Xato yo'lda bo'lgan kimsaga berilgan yuzlab o'g'it uni to'g'ri yo'lga solmoq uchun yetarli emas. Ammo to'satdan boshiga kelgan bir falokat uning uyg'onishiga bir sababdir.

Shayx Sa'diy SHEROZIYning «Guliston» asaridan olindi

8

23-sentyabr 2019

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi-da 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Alisher SA'DULLAYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: tme/tongyulduz
Adadi – 5896
Buyurtma – V 3778

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08